

NOQOBIL OILA VA DEVIANT XULQ-ATVOR

Mamajonova Zarinabonu Iqboljon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,
O'zbek tili ta'limi fakulteti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası,
Sotsiologiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

zarinabonumamazonova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11236684>

Annotatsiya. Ushbu maqolada er-xotin munosabatlari va oilaviy kelishmovchiliklarning farzand tarbiyasi va ruhiyatiga ta'siri, ularda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan va keng tarqalgan deviant xulq-atvor alomatlari hamda noqobil oilalarning jamiyatga ziyoni haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Oila, noqobil, deviant, jamiyat, ruhiyat, vazifa, tarbiya.

INADEQUATE FAMILY AND DEVIANT BEHAVIOR

Abstract. This article talks about the impact of marital relations and family disagreements on child upbringing and psychology, the symptoms of deviant behavior that may appear in them and the damage of incompetent families to society.

Key words: Family, misfit, deviant, society, psyche, task, upbringing.

НЕАДЕКВАТНОЕ СЕМЕЙНОЕ И ДЕВИАНТНОЕ ПОВЕДЕНИЕ

Аннотация. В статье говорится о влиянии супружеских отношений и семейных разногласий на воспитание и психологию детей, о симптомах девиантного поведения, которые могут у них проявиться, а также о вреде некомпетентных семей для общества.

Ключевые слова: Семья, маргинал, девиант, общество, психика, задача, воспитание.

Oila har qanday jamiyatda keyingi avlodlarni dunyoga keltiruvchi, yangi tug'ilgan odamlarda yaxshilikni rivojlantiruvchi, yomonlikni bostiruvchi eng tinch vositadir. Agar oila kichik vaxshiylarni jilovlay olmasa, oilaning o'zi aziyat chekadi, oxir-oqibat jamiyat ham vayron bo'ladi.

Fredrik Le-Pley

Kirish. Oila biz uchun qadimdan muqaddas dargoh va ilohiy rishta sifatida qon-qonimizga singib ketgan buyuk qadriyat hisoblanadi. Tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, ruhiy-axloqiy, iqtisodiy-huquqiy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birlik hisoblanmish oila qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror taraqqiy etishini ajdodlarimiz juda yaxshi anglashgan.

Bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan globallashuv davriga kelib ham O'zbekiston o'z istiqboli va kelajagini oilani rivojlantirish, uni e'zozlashda, deb bilayotgani yuqoridagi an'anaviy qadriyatlarimizni yanada boyitgan holda zamonaviy, namunali va farovon oilani barpo etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanganida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. O'z navbatida, umuminsoniy va milliy oilaviy qadriyatlarni tahlil qilish asosida zamonaviy, namunali oila mezonlarini belgilash hamda "Oila jamiyat va davlat himoyasida" konstitutsiyaviy prinsipini keng targ'ib etish va jamiyatga singdirish masalalariga kompleks yondashish faoliyatimizda ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Metod va materiallar. «Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, inson avvalambor qayerda ishlashidan qat'i nazar, kim bo'lishidan qat'i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o'zimga munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman. Odam baxtliman deyishga qanchalik haqqi bor? Agar oilang bilan sen baxtli bo'lsang, baxtliman deyishga haqqing bor. Faqat oilam emas, xalqim baxtli bo'lsa men o'zimni baxtli deb bilaman» deya ta'kidlaydi yurtboshimiz o'z sahifasida¹. 2023-yil 24-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Facebook ijtimoiy tarmog'idagi rasmiy sahifasida davlat rahbari tavalludining 61 yilligiga bag'ishlangan «Janob Prezident» nomli hujjatli film namoyish qilindi. Intervyuda O'zbekiston prezidenti oila va baxt haqidagi fikrlarini o'rtoqlashdi.

Uning fikricha, har bir inson hayotida eng muhimi, bu — oila.

Haqiqatan ham, oila muqaddas dargoh, chunki u insonning eng yaqin qarindoshlaridan tashkil topuvchi maskan, uning har bir a'zosi bir-birini qo'llab-quvvatlaydi, bir-biri bilan samimiy munosabatda bo'ladi, bir-biriga ko'mak beradi, xatolarini anglashga va ko'maklashishga yordam beradi va bu muhitda inson kamol topadi. Shuning uchun ham oila jamiyatning eng muhim bo'lagi hisoblanadi va davlatimiz tomonidan doimo katta e'tibor qaratiladi.

Oilaviy munosabatlar farzandlar uchun katta ahamiyatga ega, ularning jismoniy va ma'naviy rivojlanishiga ko'mak qiladi va ularning hayotga kirib borishini ta'minlaydi. Ota-ona munosabatlari farzand tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, hattoki farzandlarining kelajakda qanday inson bo'lib yetishishlari ham bunga bog'liq bo'ladi. Nafaqat ota-ona bilan bola, balki er va xotin o'rtasidagi munosabat ham farzand psixologiyasiga juda katta ta'sir o'tkazadi. Masalan, farzandga ota ham, ona ham birdek yaxshi munosabtda bo'lsa-yu lekin o'zaro munosabatlari salbiy bo'lsa, bu farzand ongiga yaxshi ta'sir etmaydi albatta. Natijada esa bu munosabat bola psixologiyasining buzilishiga olib keladi.

Bunda ota-onaning o'rni juda muhim ekanligi ko'p jihatdan o'z tasdig'ini topgan. Lekin oiladagi aka-uka va opa-singil munosabati, yolg'iz va ko'p bolali oilalardagi bolalar psixik xususiyatlarining bir-biridan farqi, bunday holatning bola psixikasiga qay darajada ta'sir etishiga doir muammolar hali izchil ravishda o'rganilmagan. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, bugungi kunda inson faoliyatining muvaffaqiyatli amalga oshishi uning avvalambor o'zini, shu bilan birga o'zga insonlar hislarini tushuna olishi va bunga muvofiq ravishda munosabatlarni o'rnatishiga bog'liq.

Har qanday oila o'z hayoti davomida muammoli vaziyatlarga duch keladi, ularni hal qilish qarama-qarshi individual ehtiyojlar, motivlar va manfaatlar sharoitida amalga oshiriladi. Ziddiyat qarama-qarshi maqsadlar, manfaatlar, pozitsiyalar, fikrlarning to'qnashuvi sifatida tavsiflanadi.

Oilaviy mojarolar nizolarga bo'linadi: turmush o'rtoqlar, ota-onalar va bolalar, har bir turmush o'rtog'ining turmush o'rtog'i va ota-onasi, bobosi va buvisi. Oilaviy munosabatlarda oilaviy nizolar asosiy rol o'ynaydi. Ular, ehtimol, turmush o'rtoqlarning ehtiyojlarini qondirmaslikdan kelib chiqadi.

¹ www.gazeta.uz

Tashqi omillar oilaviy nizolarning paydo bo'lishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda: ko'p oilalarning moddiy ahvolidan yomonlashishi; turmush o'rtoqlardan birining (yoki ikkalasining) ish joyida ortiqcha ish bilan ta'minlanishi; turmush o'rtoqlardan birini normal ish bilan ta'minlashning iloji yo'qligi; uylarining uzoq vaqt yo'qligi; bolalarni uyushtirish uchun imkoniyat yo'qligi-bolalar muassasasi va boshqalar².

Ijtimoiy normalar jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi ekanligi, shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan ijtimoiy muhit bilan uyg'unlashtiruvchi qoidalar majmui ekanligi, globallashtiruv davrida ijtimoiy normalar tizimidagi jiddiy o'zgarishlar va tendensiyalarning mohiyati, atvorlar og'ishiga ta'sir etuvchi zamonaviy omillarni o'rganish tamoyillarining roli, internet, virtual dunyo, axborot oqimining tahlili, uning sotsiologik jihatlarini o'rganish va yoshlar muammolarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, globallashtiruv jarayonida ma'naviy hayotimizni izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy xavflar va ularni oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish kerak.

Deviant xulq-atvor turlariga kiruvchi ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z-o'zini o'ldirish bilan bog'liq ijtimoiy illatlarning har biri yuzaga kelishi va ijtimoiy oqibatlariga ko'ra mohiyatan turli jihatlariga ega. Birinchi farq uzoq davom etadigan ijtimoiy zararli odatlar deviant xulq-atvor turmush tarzining ajralmas qismiga aylanadi³. Doimiy oilaviy kelishmovchilik, oila va atrof-muhitdan qoniqmaslik, uydagi tushunmovchilik va boshqalar ham bor. Bularning barchasi bolaning ruhiyatini jarohatlaydi va u mavjud vaziyatni o'zgartirishga harakat qiladi. Bu o'rinda kamchiliklar, jumladan, nizolar rivojlanishining oldini oluvchi va unga qarshi kurashuvchi ijtimoiy nazorat tizimlari ijtimoiy institutlarda salbiy rol o'ynaydi.

Mulohaza va natijalar. Shu o'rinda har qancha achchiq bo'lmasin, ochiq aytish kerakki, keyingi paytlarda xalqimizga xos bo'lman ayrim illatlar — oilaviy ajrashishlar, turli nizoli vaziyatlar, ishsizlik, oiladagi nosog'lom muhit, ma'naviy tushkunlik, ehtiyojmandlik, jinoyatga qo'l urish holatlari kabi omillar notinch, noqobil, kentik oilalar va qator ijtimoiy-ma'naviy muammolarni paydo qilmoqda. Ayniqsa, ajrashishlar sonining kamayish o'rniga tobora ko'payib borishi kishida jiddiy tashvish uyg'otadi.

Respublikamizning uchta viloyatida olib borilgan tadqiqatlarga ko'ra oilalar barbod bo'lishiga quyidagi omillar asosiy sabab bo'lmoqda:

Psixologik omil — oiladagi og'ir psixologik muhit, o'zaro tushunishning yo'qligi, oiladagi doimiy nizolar, ota-onalarning yosh er-xotin hayotiga aralashishlari, yosh er-xotinlarni begonalashtirib qo'yish, bir-biriga befarqlik;

Ijtimoiy omil — ichkilikbozlik, farzandsizlik, er yoki xotinning salomatligi yaxshi emasligi;

Ma'naviy-axloqiy omil — er-xotindan birining uzoq vaqt davomidagi nikohdan tashqari aloqalari;

Iqtisodiy omil — turarjoy sharoitlarining qoniqarli emasligi, moddiy yetishmovchilik, ishsizlik, erning oilani ta'minlamasligi, mehnat migranti sifatida chet elga ketgan er-xotindan birining oilasi bilan aloqasi uzilgani, qarzlarni uzolmaslik.⁴

² Sultonova D. "Oilaviy nizolar va ularning kelib chiqish sabablari"-1. Toshkent-2021

³ Adashboyev N.M. "Voyaga yetmaganlar deviant xulq-atvor profilaktikasi"-3. Toshkent-2021

⁴ www.stat.uz

Olib borilgan tadqiqotlar xulosalariga tayanib, ajrashishlarning oldini olish, oilalarni mustahkamlashga qaratilgan takliflar kiritish lozim. Masalan, eng avvalo, mahalla fuqarolar yig'inlari huzuridagi Yarashtirish komissiyalari va "Ota-onalar universiteti" tuzilmalari uchun malakali kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish zarur. Oila qurayotgan fuqarolarni tegishli qonunchilik asosida er-xotinning huquq va majburiyatlari, xususan, nikoh shartnomasini tuzish tartiblari, shart-sharoitlari, oqibatlarini yuzasidan huquqiy savodxonligini oshirish lozim. Bu borada keng qamrovli targ'ibot ishlarini yuritish, tegishli uslubiy qo'llanmalar yaratish, metodik tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Umumta'lim maktablaridan tortib, oliy o'quv yurtlarining dasturlarigacha oila saboqlarini o'rgatuvchi dars mashg'ulotlarini kiritish foydadan holi bo'lmaydi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oiladagi kelishmovchiliklar, noto'g'ri tarbiya yoxud e'tiborsizlik farzand tarbiyasiga judayam kuchli salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa ayrim shaxslarda deviant xulq-atvorning uyg'onishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Deviantlik, ya'ni noto'g'ri xulq-atvor eng avvalo shaxsning o'ziga, oilasiga, yaqinlari - do'stlari, qarindoshlari, qo'shnilariga va oxir oqibatda esa jamiyatga xavf tug'diradi. Oila tarbiyasida otaning obro'si katta ahamiyatga ega.

Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda maktabni oila bilan bog'lamasdan muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun oila tarbiyasida maktab va ota-onalar o'rtasidagi ta'lim-tarbiyaga oid birgalikdagi ishlari katta ahamiyatga ega. Ota-onalarning o'qituvchilar bilan bo'lgan uchrashuvlarida aytilgan fikrlar, ayniqsa qimmatlidir. Chunki ular o'z farzandlari to'g'risida ko'proq narsalarni bilib oladilar. Shuning uchun bola tarbiyasining tub mohiyatini tushungan har bir ota-ona oila bilan maktab o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga intiladi. Bola maktabni tamomlagunga qadar otaona maktab bilan yaqin aloqa o'rnatishi, farzandining darslarini o'zlashtirishi, xulq-atvoridan xabardor bo'lib turishi, tarbiya masalalarida o'qituvchi, sinf rahbari bilan maslahatlashib turishi, bolaning darsdan so'ng nima bilan mashg'ulligi haqida o'qituvchi va sinf rahbarini xabardor qilib turishi lozim.

REFERENCES

1. www.gazeta.uz
2. Sul'tonova D. "Oilaviy nizolar va ularning kelib chiqish sabablari"-1. Toshkent-2021.
3. Adashboyev N.M. "Voyaga yetmaganlar deviant xulq-atvor profilaktikasi"-3. Toshkent-2021.
4. Jiyanmuratova Gulnoz. Sotsiologiya tarixi. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 466 b. / https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAAJ&citation_for_view=fdboTmYAAAJ:W7OEmFMy1HYC
5. www.stat.uz
6. Tagiyeva G. Husanova H. "Oila va gender sotsiologiyasi" 303 bet. Samarqand-2021.
7. Jiyanmuratova G.Sh. "Sotsiologiya tarixi". 464 bet. Toshkent-2020.